

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TALIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI**

**"TASDIQLAYMAN"**

Toshkent davlat agrar universiteti

O'quv ishlari bo'yicha prorektor

 S. Boboyev

2025 yil "04" 07

Ro'yxatga olindi: № BD-60810800-1.18

2025 yil "04" 07

**QISHLOQ XO'JALIK HAYVONLARINI URCHITISH  
O'QUV DASTURI**

<b>Bilim sohasi:</b>	800000-	Qishloq. o'rmon, daliq xo'jaligi va veterinariya
<b>Ta'lim sohasi:</b>	810000-	Qishloq xo'jaligi
<b>Ta'lim yo'nalishlari:</b>	60810800-	Zooinjeneriya

**TOSHKENT – 2025**



Fan/modul kodi QXHU1308	O'quv yili 2025-2026	Semestr 3-4	ECTS - Kreditlar 4-4	
Fan/modul turi Majburiy fan	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4-4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Qishloq xo'jalik hayvonlarini urchitish	96	144	240

## 2. I. Fanning mazmuni

Fanni o'qitishdan maqsad-Xonaki hayvonlar evolyusiyasi qonuniyatlarini bilish, naslli hayvonlarning shaxsiy taraqqiyoti, konstitsiyasi, mahsuldorligi va boshqa xujalikka foydali belgilarini o'rganish, tanlash va juftlash, zot yaratish, zotlarni yaxshilash va ulardan foydalanish nazariyasi va amaliyoti asoslarini egallash, naslchilik ishini rejalastirish to'g'risidagi bilimlarini o'rganishdan iborat.

Fanning asosiy vazifasi - chorva mollari va parrandalarini belgi va xususiyatlarining naslga berilishi hamda mahsuldorlik bo'yicha genetik salohiyatini yuzaga chiqarish, shaxsiy taraqqiyotini boshqarish, hayvonlarni kompleks belgilari bo'icha tanlash, juftlash, zotlarni va yangi zotlar, podalar, tizimlar va oilalar yaratishda urchitish usullaridan foydalanishdan iborat.

## II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

### II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

#### I-MODUL. QISHLOQ XO'JALIK HAYVONLARINI URCHITISH ASOSLARI

**1-mavzu. Kirish. Qishloq xo'jalik hayvonlarini urchitish fanining rivojlanish tarixi, hozirgi ahvoli va xalq xujaligidagi ahamiyati.**

Chorvachilik tarmog'ining xalq xo'jaligidagi ahamiyati. Hozirgi holati. Iqtisodiy isloxotlar, fermer xo'jaliklarini rivojlantirishdagi chora tadbirlar. Chorva mollari urchitish faning tarixi, maqsadi va vazifalari tug'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

**2-mavzu. Qishloq xo'jalik hayvonlarining kelib chiqishi evolyutsiyasi, yovvoyi ajdodlari, ularni xonakilashtirishda yuz bergan o'zgarishlar.**

Hayvonlarni xonakilashtirishning zamoni va makoni hamda uy hayvonlarining qadimgi ajdodlari va xonakilashtirish jarayonida bo'lgan hayvonlardagi o'zgarishlar haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

**3-mavzu. Qishloq xo'jalik hayvonlarining shaxsiy taraqqiyoti (ontogenez), o'sish va rivojlanish qonuniyatlari, hayvonlarining o'sishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar**

Mavzuning ahamiyati va o'sish va rivojlanishning xususiyatlari hamda o'sish



va rivojlanish qonuniyatlari to'g'risida. O'sish tezligini aniqlash usullari va yosh mollar rivojlanmasligining shakllari hamda o'sish va rivojlanish shakllari o'sish va rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar haqidagi masalalarni o'rganishga qaratilgan.

**4-mavzu. Qishloq xo'jalik hayvonlarining shaxsiy taraqqiyotini boshqarish.**

Ontogenezni boshqarish muammolari embrionol rivojlanishni hamda postembrional taraqqiyotni boshqarish va bu boradagi omillarning ilmiy izlanishlari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

**5-mavzu. Qishloq xo'jalik hayvonlarining konstitutsiyasi, ekstereri va intereri**

Qishloq xo'jalik hayvonlarining konstitutsiyasi haqidagi tushuncha va hayvonlar konsitutsiyasining klassifikatsiyasi hamda eksterer va interer tushunchasi, uning ahamiyati mavzuda batafsil yoritilgan.

**6-mavzu. Qiishloq xo'jalik hayvonlarini mahsuldorligi. Mahsuldorlikni baholash tamoyillari.**

Mahsuldorlik haqida tushuncha va chorva mollarining mahsuldorligi bo'yicha baholash hamda mollarning texnologik ko'rsatkichlariga qarab baholash keng yoritilgan.

**7-mavzu. Qiishloq xo'jalik hayvonlarinig sut mahsuldorligi bo'yicha baholash.**

Qiishloq xo'jalik hayvonlarinig sut mahsuldorligi (sutdorlik koeffitsienti, sutning doimiylik va turg'unlik koeffitsienti) sut mahsuldorligiga tasir etuvchi omillar, sutning sifat ko'rsatkichlari hamda sigirlarning sut mahsuldorligini hisoblash usullari haqida atroflicha malumotlar keltirigan.

Qishloq xo'jalik hayvonlarining sut mahsuldorligini baholash usullari: sudorlik koeffitsienti, bazis yog'dorlik darajasini aniqlash, laktatsiyaning doimiylik koeffitsienti, yog'dorligi, sutning yog' chiqimi, o'rtacha yog' miqdori va zachyot massasini aniqlash.

**8-mavzu. Qiishloq xo'jalik hayvonlarinig go'sht mahsuldorligi bo'yicha baholash**

Hayvonlarning go'sht mahsuldorligi go'shtning kimyoviy tarkibi go'sht mahsuldorligining soni va sifat ko'rsatkichlari hamda go'sht mahsuldorligiga ta'sir etuvchi omillar.

**9-mavzu. Qo'ylarning jun va teri mahsuldorligi bo'yicha baholash**

Junlarni klassifikatsiyasi, jun maxsulotining tavsifi. Teri mahsuldorligi jun sifatleri va ularni baholash.

**10-mavzu. Parrandalarning tuxum va go'sht mahsuldorligi bo'yicha baholash**

Parrandalarning tuxum va go'sht mahsuldorligi tuxum yetishtirish texnologiyasi.

**11-mavzu. Yilqilarning mahsuldorligi va ish qobiliyati bo'yicha baholash.**

Otlarning tortish kuchini aniqlash, turli yo'nalishdagi ot zotlari, otlarning ish miqdori va quvvatini aniqlash.

**12-mavzu. Hayvonlarning pushtdorlik qobiliyati bo'yicha baholash.**



Qishloq xo'jaligi hayvonlarining ko'payish xususiyatlari, jinsiy sikl va bug'ozlik davrlari to'g'risida batafsil ma'lumotlar beriladi.

## **II-MODUL. QISHLOQ XO'JALIK HAYVONLARINI TANLASH VA SARALASH.**

**1-mavzu. Qishloq xo'jalik hayvonlarini tanlash va uning nazariy asoslari**  
Qishloq xo'jaligi hayvonlarini tanlashning tarixi, moxiyati, nazariyasi. Tanlash klassifikatsiyasi (turlarga bo'linishi). Tanlashning xillari va shakllari, tanlash natijasiga ta'sir etuvchi omillar.

**2-mavzu. Hayvonlarni kelib chiqishi, konstitutsiyasi, ekstereri, intereri (nasl-nasab shajarasi) va yaqin qarindoshligi bo'yicha tanlash**  
Chorva mollarini kelib chiqishi, mahsuldorligi bo'yicha baholash va tanlash. Hayvonlarning konstitutsiyasini aniqlash. Hayvonlarni ekster'er ko'rsatkichlari bo'yicha baholash. Hayvonlarning konstitutsiyasi va ekster'erin o'rganishda inter'er ma'lumotlaridan foydalanish.

Nasl-nasab shajarasining ko'rinishlari, ularning vazifasi. Dastlabki zootexnik ma'lumotlar asosida qishloq xo'jalik hayvonlari uchun to'ziladigan har - xil shakldagi nasl - nasab shajarasini tuzish va taxlil qilish.

Hayvonlar yon qarindoshlari (sibs va yarim sibs) bo'yicha baholash imkoniyati, uning ijobiy va salbiy tomonlari. Har xil turdagi hayvonlarni tanlashda bu usulning qo'llanilishi. Oilaviy seleksiyaning tanlashdagi o'rni.

### **3-mavzu. Hayvonlarni mahsuldorligi va texnologik xususiyatlari bo'yicha tanlash**

Naslli hayvonlarni umumiy baholashda shaxsiy mahsuldorligi bo'yicha baholashning ijobiy va salbiy tomonlari. Shaxsiy mahsuldorlikni baholashdagi asosiy talablar. Hayvonlarning rekord yoki yuqori mahsuldorligini otchoparlarda, seleksion molxonalarda, iydish, ustirish, burdoqilash nazoratxonalarida aniqlash. Nasldor hayvonlarning shaxsiy mahsuldorligini eleverlarda baholash. Otoqli va mahsuldorligi yuqori bo'lgan hayvonlarning seleksiya ishidagi ahamiyati.

### **4-mavzu. Hayvonlarni o'z bolalarining sifati va buqalarning nasllik qiymati bo'yicha tanlash.**

Hayvonlar genotipini bolalari sifatiga qarab baholash. Bolalar sifatiga qarab baholashni o'tkazishdagi muammolar, uning uzoq davom etishi. Baholashning aniqligini oshiruvchi shart - sharoitlar: ota-onalari sifati, bolalari soni, bolalarini umumiy baholash, bolalarini tarbiyalash sharoiti hamma bolalarini hisobga olish. Bolalar sifatiga qarab baholash usullari: ota-onalar mahsuldorligi bilan solishtirish, tengqurlari, poda va zotning o'rtacha ko'rsatkichlari bilan taqqoslash, diallel va poliallel juftlash usuli. Prepotentlik va uni aniqlash usullari. Bir necha ota hayvonning urug'ini aralashtirib ona hayvonni urug'lantirish (geterospermiya).

### **5-mavzu. Tanlashni tashkillashtirish, tanlashdagi belgilarning seleksion-genetik ko'rsatkichlari**

Tanlashdagi belgilarning seleksion-genetik ko'rsatkichlari: irsiyat (irsiylanish) koeffitsienti, takrorlanish koeffitsienti, seleksiya farqi, tanlash jadalligi, tanlash chegarasi, bug'in almashish. Seleksion siljish, seleksiya samarasi,



poda gomozigotligi darajasi, genetik o'xshashlik.

Hayvonlarni kompleks baholashda seleksion-genetik ko'rsatkichlardan foydalanish seleksiya indeksleri.

**6-mavzu. Qishloq xo'jalik hayvonlarini bonitirovka qilish to'g'risida tushuncha. Sog'in sigirlar, nasldor buqalar va buzoqlarni bonitirovka qilish**

Bonitirovka o'tkazishdagi asosiy prinsiplar. Har xil turdagi hayvonlarni bonitirovka qilishdagi o'xshashliklar va farqlar. Bonitirovka natijasi bo'yicha hayvonlarni guruxlarga ajratish.

**7-mavzu. Qishloq xo'jalik hayvonlarini juftlash (saralash) va uning ahamiyati**

Juftlashning mohiyati. Tanlash va juftlashning o'zaro bog'likligi. Juftlashning asosiy prinsiplari: ma'lum yo'nalishda bo'lishi, erkak hayvonlarning urg'ochi hayvonlardan ustunligi, bo'g'inlar orasidagi o'xshashlik, qarindoshlik juftlashni xisobga olish va boshqarish. Juftlashning kupayish usullari bilan bogliqligi: xususiy, guruxli, oila guruxli juftlash. Gomogen va geterogen juftlash, ularning ijobiy va salbiy tomonlari. Yoshi bo'yicha juftlash. Juftlash samaradorligini oshirishda genetika fani yutuqlaridan foydalanish.

Inbridingning gomogen juftlash shakli sifatidagi roli va ahamiyati. Inbriding to'g'risida tushuncha. Inbriding va autbridingning biologik mohiyati. Inbridingni foydasi va zarari. Inbred depressiya, uning sabablari. Inbriding darajalari klassifikatsiyalari. Inbriding yordamida amalga oshiriladigan zootexnik vazifalar. Inbridingning zararli ta'sirini oldini olish. Chorvachilikda geterozisdan foydalanish.

**8-mavzu. Zot haqida tushuncha, zotni yaratish omillari**

Zot to'g'risida tushuncha. Zot yaratilishi jarayoni va usullari. Zotlarning shakllanishi va o'zgaruvchanligiga ta'sir qiluvchi omillar. Zotlarning yaxshilanish darajasi, mahsuldorlik yunalishi, ixtisoslashishi, yashash sharoiti va tarqalishiga qarab klassifikatsiyalari. Zotlarning iqlimlashishi, geografik va iqtisodiy sharoitlarga moslashuvi. Zotlarning yemirilishi, aynishi va uning oldini olish. Zotning tuzilishi. Zotlar bilan naslchilik ishlari olib borish. Zot bo'yicha kengashlar, seleksiya markazlari, naslchilik zavodlari, naslchilik stansiyalari, fermalar, fermer va shaxsiy xo'jaliklarda naslchilik ishlarini olib borish xususiyatlari.

**9-mavzu. Qishloq xo'jalik hayvonlarini urchitish usullari, sof zotli urchitish. Liniya va oilalarda hamda qarindoshli urchitishning chorvachilikdagi ahamiyati**

Urchitish usullari to'g'risida tushuncha. Urchitish usullari klassifikatsiyalari. Sof zotli urchitish, uning ahamiyati, vazifalari va genetik xususiyatlari. Sof zotli urchitish usullari. Tizimli urchitish va uning tarixi, inbred, zavod va yopik tizimlarni yaratish. Tizimlarning asosiy xususiyatlari: sifat bo'yicha uxshashligi, o'zgaruvchanligi, turgunligi va uzoq yashovchanligi. Oilali urchitish va u bilan ishlash, ixtisoslashgan oila va tizimlar. Sun'iy qochirishda oila va tizimli urchitishning xususiyatlari.

Liniya va oilalarda urchitish. Liniya va oilalarda urchitishning tarifi. Liniya tiplari, alomatlari. Liniya elementi. Liniyalarni yaratish va uni davom ettirish.



Oilalarda ish olib borish. Qarindoshli urchitish va uning moxiyati, axamiyati. Bu urchitishning qisqacha tarifi. Inbridingni o'lash. Inbridingning turlari. Naslchilik ishida inbridingning roli.

#### **10-mavzu. Qishloq xo'jalik hayvonlarini chatishtirish usullari, gibridlash, geterozis va undan chorvachilikda foydalanish**

Chatishtirish, uning axamiyati va vazifalari, chatishtirishning biologik xususiyatlari: geterozigotlikning oshishi, kombinativ o'zgaruvchanlikning kelib chiqishi, genlar migratsiyasi, geterozisning ruyobga chiqishi, chatishtirishning muvoffaqiyatiga ta'sir qiluvchi sharoitlar: aniq maqsad bulishi, onalik va otalik zotlarni tanlash, oziqlantirish va asrash sharoitlari, baholash va tanlashni tashkil qilish, maqsadga muvofiq tarbiyalash, duragaylarni juftlash.

Gibridlashning moxiyati va axamiyati. Gibridlashning turli ko'rinishlari. Liniyalararo gibridlashning yutuqlari gibridlash markazlari. Geterozis, uning axamiyati va seleksiya samarasini aniqlash.

#### **11-mavzu. Qishloq xo'jalik hayvonlarini urchitish texnikasi, qochirish usullari, qochirish va tug'dirish rejasini tuzish**

Tabiiy va suniy qochirishning chorvachilikdagi axamiyati. Suniy qochirishning afzallik tomonlari. Podada kengaytirilgan takroriy ishlab chiqarishni tashkil kilish. Qishloq xo'jalik hayvonlarining jinsiy va fiziologik yetilishi va ularning dastlabki qochirishdagi yoshi. Qishloq xo'jalik hayvonlarini qochirish usullari. Qochirish va to'g'ish rejasini tuzish.

#### **12-mavzu. Chorvachilikda naslchilik ishlari va uni tashkil etish. Yirik miqyosli seleksiya rejasini tuzish. Klassik va zamonaviy seleksion usullardan samarali foydalanish**

Zotlarni yaxshilash, yangi zotlar yaratish dasturlari va yullari. Podalarning genetik potensialini oshirish. Naslchilik ishlarini tashkil qilish va boshqarish. Naslchilik ishlari rejasi. Zotlar bilan ishlashni tashkil qilish va ulardan ishlab chiqarish vositasi sifatida foydalanish.

Yirik miqyosli seleksiya to'g'risida tushuncha. Yirik miqyosli seleksiyaning vazifalari, yirik miqyosli seleksiyaning qullanilishi.

### **III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

*Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya e'tiladi:*

1. Qishloq xo'jalik hayvonlarini tana qismlari, ekstereri, tana o'lchamlarini olish va ekstererni baholash usullarini o'rganish.
2. Tana tuzilishi indekslarini hisoblash, eksterer profilini tuzish va konstitutsiyasini o'rganish.
3. Qishloq xo'jalik hayvonlarini o'sishi, mahsuldorligi va uni hisobga olish usullari.
4. Qishloq xo'jalik hayvonlarini sut va go'sht mahsuldorligi bo'yicha baholash usullari.
5. Qo'ylarning jun va teri, parrandalarning tuxum va go'sht mahsuldorligi bo'yicha baholash usullari.



6. Qishloq xo'jaligi hayvonlarini nasl-nasab shajarasini tuzish, kelib chiqishiga qarab baholash va tanlash.
7. Sog'in sigirlar, nasldor buqalar va buzoqlarni bonitirovka qilish.
8. Chorva mollarini tanlash, irsiyat koeffitsienti, seleksiya farqlanishi va tanlash samaradorligini aniqlash.
9. Qishloq ho'jalik hayvonlarini nasl - nasab shajarasiga qarab juftlash shakllari bilan tanishish.
10. Gomozigotalilikning oshishi yoki inbiriding koeffitsientini aniqlash.
11. Qishloq ho'jalik hayvonlarini urchitish usullari. Zavod liniyasi va Zavod oilasi sxemasini tuzish va tahlil qilish.
12. Chorva mollarini chatishtirish, duragaylash usullari va qon darajasini aniqlash.

#### **IV. Laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

*Laboratoriya mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya e'tiladi:*

1. Qishloq xo'jalik hayvonlarining kariotiplari.
2. Sut tarkibidagi yog', oqsil miqdorini aniqlash usullari.
3. Ulchov asboblari va chorva hayvonlarining tana o'lchamlarini olish va ekstererni baholash.
4. Sutdagi yog' va oqsil miqdorini hisobga olish usullari.
5. Hayvonlarni kelib chiqishi (nasl-nasab shajarasini) va yaqin qarindoshligi bo'yicha tanlash.
6. Hayvonlarni mahsuldorligi va texnologik xususiyatlari bo'yicha tanlash.
7. Hayvonlarni o'z bolalarining sifati va buqalarning nasllik qiymati bo'yicha tanlash.
8. Tanlashni tashkillashtirish, tanlashdagi belgilarning seleksion-genetik ko'rsatkichlari. Korreliyatsiya va regritsiya koeffitsientini, olingan ma'lumotlarni ishonchlilik darajasini tahlil qilish.
9. Hayvonlarda kasalliklarga chidamlilik bo'yicha seleksiya ishlari olib borish.
10. Hayvonlarni qochirish usullarini o'rganish, sun'iy qochirish usullari va embrionlar transplantatsiyasidan foydalanish.
11. Har xil turdagi hayvonlarni enlash, tamg'alash, hayvonlarga laqab kuyish, nomerlash, DNK va davlat naslchilik kitobiga yozish tartibi.
12. Zootexniya hisobi va naslchilik xujjatlari (naslchilik guvoxonmalari va kartochkalari).

#### **V. Kurs ishi uchun taxminiy mavzular**

*Kurs ishi uchun tavsiya etiladigan mavzular*

1. Naslchilik to'g'risidagi Vazirlar Maxkamasining Qarori (1995 yil 21 dekabr).
2. Qishloq xo'jalik hayvonlarini urchitish fanining rivojlanish tarixi.
3. Chorvachilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyati.



4. Qishloq xo'jalik hayvonlarini kelib chiqishi va evolyusiyasi.
5. Uy hayvonlarining yovvoyi ajdodlari.
6. Qishloq xo'jalik hayvonlarining kariotiplari.
7. Qishloq xo'jalik hayvonlarini xonakilashtirishda yuz bergan o'zgarishlar.
8. Qishloq xo'jalik hayvonlarining konstitutsiyasi
9. Eksterer haqida tushuncha va uning ahamiyati.
10. O'lchov asboblari yordamida tana o'lchamlarini olish va ekstererni baholash.
11. Ekster'erning asosiy kamchiliklari va nuqsonlari.
12. Qishloq xo'jalik hayvonlarining indeksi, indekslarini aniqlash usullari.
13. Chorva mollarini konditsiyasi va intereri.
14. Chorvamollari organizmining rivojlanishqonuniyatlari.
15. Chorva mollarini o'sishini o'rganish usullari.
16. Qishloq xo'jalik hayvonlarining mutloq va nisbiy o'sishi.
17. O'sish va rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar.
18. Buzoqlarni o'stirishning turli hil usullari.
19. Go'sht uchun boqiladigan yosh mollarni o'sish va rivojlanishi.
20. Hayvonlarning shaxsiy taraqqiyotini (ontogenezni) boshqarish.
21. Embrional va postembrional rivojlanish to'g'risida tushuncha, embrional va postembrional rivojlanishni baholash.
22. Qoramollarning biologik xususiyatlari.
23. Qo'y va echkilarning biologik xususiyatlari.
24. Yilqilarning biologik xususiyatlari.
25. Parrandalarning biologik xususiyatlari.
26. Chorva mollarini mahsuldorligiga qarab baholash.
27. Qishloq xo'jalik hayvonlarining sut mahsuldorligi.
28. Sigirlarni sut mahsuldorligiga ta'sir etuvchi omillar.
29. Qishloq xo'jalik hayvonlarining go'sht mahsuldorligi.
30. Go'sht mahsuldorligiga ta'sir etuvchi omillar.
31. Qo'ylarning jun va terimahsuldorligi.
32. Parrandalarning tuxum mahsuldorligi.
33. Yilqilarning ish qobiliyatini aniqlash.
34. Cho'chqalarning serpushtlik xususiyati uning chorvachilikdagi ahamiyati.
35. Chorva mollarini mahsuldorligini oshirish omillari.
36. Mahsuldorlik bo'yicha qoramol zotlarining klassifikatsiyasi.
37. Mahsuldorligi bo'yicha qo'y zotlarining klassifikatsiyasi.
38. Mahsuldorligi bo'yicha yilqi zotlarining klassifikatsiyasi.
39. Mahsuldorlik bo'yicha cho'chqa zotlarining klassifikatsiyasi.
40. Mahsuldorligi bo'yicha parranda zotlarining klassifikatsiyasi.



41. Qishloq xujalikhayvonlarini tanlash va uning klassifikatsiyasi.
42. Sun'iy tanlashning xillari va shakllari.
43. Qishloq xo'jalik hayvonlarini kelib chiqishi (nasl-nasab shajarasi) va yaqin qarindoshligi bo'yicha tanlash.
44. Qishloq xo'jalik hayvonlarini mahsuldorligi va texnologik xususiyatlari bo'yicha tanlash.
45. Qishloq xo'jalik hayvonlarini konstitutsiyasiva ekstereriga qarab tanlash.
46. Qishloq xo'jalik hayvonlarini bolalarining sifatiga qarab tanlash.
47. Buqalarning nasliy qimmatini bo'yicha baholash va tanlash.
48. Parrandalarni tuxum mahsuldorligi bo'yicha tanlash.
49. Tanlashning genetik asoslari.
50. Tanlash natijalariga ta'sir etuvchi omillar.
51. Hayvonlarni tamg'lash, laqab berish va hisob-kitob qilish.
52. Qishloq xo'jalik hayvonlarini bonitirovka qilish.
53. Sog'in sigirlar, nasldor buqalar va buzoqlarni bonitirovka qilish.
54. Buqalarga nasliy toifalar berish va uning chorvachilikdagi ahamiyati.
55. Qishloq xo'jalik hayvonlarini saralash va uning klassifikatsiyasi.
56. Qishloq xo'jalik hayvonlarini saralashning-gomogen va geterogen usullari.
57. Nasl-nasab shajarasi bo'yicha qarindoshlik juftlash darajasini aniqlash.
58. Chorvachilikda juftlash rejasini tuzish.
59. Irsiyat koeffitsientini aniqlash va uning seleksiyada qullanilishi.
60. Korreliatsiya koeffitsientini aniqlash va uning seleksiyada qo'llanilishi.
61. Regressiya va takrorlanish koeffitsientini aniqlash.
62. Chorva hayvonlarida va parrandalarda seleksion indekslarini hisoblash.
63. Seleksiya differensial va seleksiya samaradorligini (farqlanishi) aniqlash.
64. Inbriding koeffitsientini aniqlash.
65. Poda geneologiyasini tuzish va tahlil qilish.
66. Gomozigotalilikning oshish koeffitsientini aniqlash.
67. Qishloq xo'jalik hayvonlarini urchitish usullari, sof zotlarni urchitish.
68. Qishloq xo'jalik hayvonlarini liniya va oilalarda urchitish.
69. Liniya (tizim) va oila sxemalarini tuzish va tahlil qilish.
70. Tizimlar va ularni podani takomillashtirishdagi ahamiyati.
71. Oilalar va ularning podani takomillashtirishdagi ahamiyati.
72. Poda geneologiyasini tuzish va tahlil qilish.
73. Qarindoshli urchitish uning mohiyati va ahamiyati.
74. Qishloq xo'jalik hayvonlarini chatishtirish usullari.
75. Qon quyib chatishtirishning mohiyati va ahamiyati.
76. Qon singdirish yo'li bilan chatishtirishning mohiyati va ahamiyati.



77. Hayvonlarning sanoat usulida chatishtirishning mohiyati va ahamiyati.
78. Hayvonlarni zavod usulida chatishtirishning mohiyati va ahamiyati.
79. Hayvonlarni almashlab chatishtirishning mohiyati va ahamiyati.
80. Qishloq xo'jalik hayvonlarini duragaylash uning mohiyati va ahamiyati.
81. Geterozis va undan chorvachilikda foydalanish.
82. Qishloq xo'jalik hayvonlarini qochirish usullari.
83. Qishloq xo'jalik hayvonlarini qochirish va tug'dirish rejasini tuzish.
84. Chorvachilikda naslchilik ishlari, uni olib borishda asosiy yunalishlar va tadbirlar.
85. Chorvachilik fermalarida bajariladigan zootexnikaviy hisob-kitob ishlari
86. Naslchilik zavodlari, naslchilik fermalari, ularning vazifalari.
87. Zot haqida tushuncha, zotni yaratish omillari.
88. O'zbekistonda urchitilayotgan sut yo'nalishidagi qoramol zotlariga xarakteristika.
89. O'zbekistonda urchitilayotgan go'sht yo'nalishidagi qoramol zotlariga xarakteristika.
90. Qo'sh mahsuldor qoramol zotlariga xarakteristika.
91. Qoramolchilikda podani tashkil etish texnologiyasi.
92. Dag'al va yarim dag'al junli qo'y zotlariga xarakteristika.
93. Mayin junli qo'y zotlariga xarakteriyatika.
94. Go'sht yo'nalishidagi parranda zotlariga xarakteristika.
95. Tuxum yo'nalishidagi parranda zotlariga xarakteristika.
96. Qishloq xo'jalik hayvonlari zotlarini nasl, mahsuldorlik va pushtdorlik xususiyatlarini takomillashtirish usullari.
97. Chorva mollari zotlarining genofondini saqlash
98. DNK (Davlat naslchilik kitobi) davlat naslchilik kitobiga qishloq xo'jalik hayvonlarini kiritish tartibi.
99. Qishloq xo'jalik hayvonlari zotlarini sun'iy qochirishning afzalligi va qo'llanishi.
100. Qishloq xo'jalik hayvonlarini jinsiy va fiziologik yetilishi va ularni qochirishdagi yoshi.

## VI. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan respublikada chorvachilikni rivojlantirish bo'yicha qabul qilgan qarorlari mazmun mohiyati.
2. O'zbekiston Respublikasi Fermer xo'jaligi to'g'risidagi qonunning mohiyati.
3. O'zbekiston Respublikasi Veterinariya to'g'risidagi.
4. O'zbekiston Respublikasi Naslchilik to'g'risidagi qonunning mohiyati.



5. Qishloq xo'jalik hayvonlarini urchitish fanining rivojlanish tarixi.
6. Chorvachilikning xalq xo'jaligidagi ahamiyati.
7. Qishloq xo'jalik hayvonlarini kelib chiqishi va evolyusiyasi.
8. Uy hayvonlarining yovvoyi ajdodlari.
9. Qishloq xo'jalik hayvonlarining kariotiplari.
10. Qishloq xo'jalik hayvonlarining konstitutsiyasi.
11. Eksterer haqida tushuncha va uning ahamiyati.
12. Chorva mollarini konditsiyasi va intereri.
13. Chorva mollari organizmining rivojlanish qonuniyatlari.
14. Chorva mollarini o'sishini o'rganish usullari.
15. O'sish va rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar.
16. Buzoqlarni o'stirishning turli hil usullari.
17. Hayvonlarning shaxsiy taraqqiyotini (ontogenezni) boshqarish.
18. Embrional va postembrional rivojlanish to'g'risida tushuncha, embrional va postembrional rivojlanishni baholash.
19. Qoramollarning biologik xususiyatlari.
20. Qo'y va echkilarning biologik xususiyatlari.
21. Yilqilarning biologik xususiyatlari.
22. Parrandalarning biologik xususiyatlari.
23. Chorva mollarini mahsuldorligiga qarab baholash.
24. Qishloq xo'jalik hayvonlarining sut mahsuldorligi.
25. Qishloq xo'jalik hayvonlarining go'sht mahsuldorligi.
26. Go'sht mahsuldorligiga ta'sir etuvchi omillar.
27. Qo'ylarning jun va terimahsuldorligi.
28. Parrandalarning tuxum mahsuldorligi.
29. Yilqilarning ish qobiliyatini aniqlash.
30. Cho'chqalarning serpushtlik xususiyati uning chorvachilikdagi ahamiyati.
31. Chorva mollarini mahsuldorligini oshirish omillari.
32. Mahsuldorlik bo'yicha qoramol zotlarining klassifikatsiyasi.
33. Mahsuldorligi bo'yicha qo'y zotlarining klassifikatsiyasi.
34. Mahsuldorligi bo'yicha yilqi zotlarining klassifikatsiyasi.
35. Mahsuldorlik bo'yicha cho'chqa zotlarining klassifikatsiyasi.
36. Mahsuldorligi bo'yicha parranda zotlarining klassifikatsiyasi.
37. Qishloq xujalik hayvonlarini tanlash va uning klassifikatsiyasi.
38. Sun'iy tanlashning xillari va shakllari.
39. Qishloq xo'jalik hayvonlarini kelib chiqishi (nasl-nasab shajarasi) va yaqin qarindoshligi bo'yicha tanlash.
40. Qishloq xo'jalik hayvonlarini mahsuldorligi va texnologik xususiyatlari



bo'yicha tanlash.

41. Qishloq xo'jalik hayvonlarini bolalarining sifatiga qarab tanlash.
42. Buqalarning nasliy qimmati bo'yicha baholash va tanlash.
43. Parrandalarni tuxum mahsuldorligi bo'yicha tanlash.
44. Tanlashning genetik asoslari.
45. Tanlash natijalariga ta'sir etuvchi omillar.
46. Hayvonlarni tamg'alash, laqab berish va identifikatsiyalash.
47. Qishloq xo'jalik hayvonlarini bonitirovka qilish.
48. Sog'in sigirlar, nasldor buqalar va buzoqlarni bonitirovka qilish.
49. Qishloq xo'jalik hayvonlarini saralash va uning klassifikatsiyasi.
50. Nasl-nasab shajarasi bo'yicha qarindoshlik juftlash darajasini aniqlash.
51. Qishloq xo'jalik hayvonlarini bonitirovka qilish.
52. Sog'in sigirlar, nasldor buqalar va buzoqlarni bonitirovka qilish.
53. Buqalarga nasliy toifalar berish va uning chorvachilikdagi ahamiyati.
54. Qishloq xo'jalik hayvonlarini saralash va uning klassifikatsiyasi.
55. Qishloq xo'jalik hayvonlarini saralashning-gomogen va geterogen usullari.
56. Nasl-nasab shajarasi bo'yicha qarindoshlik juftlash darajasini aniqlash.
57. Chorvachilikda juftlash rejasini tuzish.
58. Irsiyat koeffitsentni aniqlash va uning seleksiyada qullanilishi.
59. Korreliyatsiya koeffitsentini aniqlash va uning seleksiyada qo'llanilishi.
60. Regressiya va takrorlanish koeffitsentini aniqlash.
61. Chorva hayvonlarida va parrandalarida seleksion indekslarini hisoblash.
62. Seleksiya differensial va seleksiya samaradorligini (farqlanishi) aniqlash.
63. Inbriding koeffitsentini aniqlash.
64. Poda geneologiyasini tuzish va tahlil qilish.
65. Gomozigotalilikning oshish koeffitsientini aniqlash.
66. Qishloq xo'jalik hayvonlarini urchitish usullari, sof zotlarni urchitish.
67. Qarindoshli urchitish uning mohiyati va ahamiyati.
68. Qishloq xo'jalik hayvonlarini chatishtirish usullari.
69. Qon quyib chatishtirishning mohiyati va ahamiyati.
70. Qon singdirish yo'li bilan chatishtirishning mohiyati va ahamiyati.
71. Hayvonlarning zavod va sanoat usulida chatishtirishning mohiyati va ahamiyati.
72. Hayvonlarni almashlab chatishtirishning mohiyati va ahamiyati.
73. Qishloq xo'jalik hayvonlarini duragaylash uning mohiyati va ahamiyati.
74. Geterozis va undan chorvachilikda foydalanish.
75. Qishloq xo'jalik hayvonlarini qochirish usullari.
76. Qishloq xo'jalik hayvonlarini qochirish va tug'dirish rejasini tuzish.



77. Chorvachilikda naslchilik ishlari, uni olib borishda asosiy yunalishlar va tadbirlar.

78. Chorvachilik fermalarida bajariladigan zootexnikaviy hisob-kitob ishlari.

79. Naslchilik zavodlari, naslchilik fermalari, ularning vazifalari.

80. Zot haqida tushuncha, zotni yaratish omillari.

81. O'zbekistonda urchitilayotgan sut yo'nalishidagi qoramol zotlariga xarakteristika.

82. Qo'sh mahsuldor qoramol zotlariga xarakteristika.

83. Qoramolchilikda podani tashkil etish texnologiyasi.

84. O'zbekistonda urchitilayotgan go'sht yo'nalishidagi qoramol zotlariga xarakteristika.

85. Dag'al va yarim dag'al junli qo'y zotlariga xarakteristika.

86. Mayin junli qo'y zotlariga xarakteristika.

87. Go'sht yo'nalishidagi parranda zotlariga xarakteristika.

88. Tuxum yo'nalishidagi parranda zotlariga xarakteristika.

89. Qishloq xo'jalik hayvonlari zotlarini nasl, mahsuldorlik va pushtdorlik xususiyatlarini takomillashtirish usullari.

90. DNK (Davlat naslchilik kitobi) davlat naslchilik kitobiga qishloq xo'jalik hayvonlarini kiritish tartibi.

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

### 3. VII. Ta'lim natijalari (shakllanadigan komponentsiya)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

Chorva hayvonlarning biologik xususiyatlarini, kelib chiqishi tana tuzilishi, sut va go'sht mahsuldorligi va mahsuldorligini hisoblash va baholashni ularga ta'sir qiluvchi omillarni, O'zbekistonning rejali qoramol zotlarini, naslchilik rejasini tuzishni, ozuqalarning kimyoviy tarkibini va sifatini baholash usullari haqida *tasavvurga ega bo'lishi*;

Chorva hayvonlari va qoramollarning kelib chiqishini, chorva hayvonlarini mahsulotlariga xo'jalikda dastlabki ishlov berishni, chorva hayvonlarini mahsuldorligi boshqarishni, hayvonlarga en solish, raqamlash, o'lchash va tarozida tortish usullarini, birlamchi naslchilik xujjatlarini yuritish va naslchilik ish rejasini tuzishni, sut va go'sht ishlab chiqarishni samarali usullarini qo'llashni, hayvonlarning turi, yoshi, jinsi va mahsuldorligiga qarab ozuqa me'yorlarini belgilashni *bilishi va ulardan foydalana olishi*;

Chorva hayvonlarini turli mahsuldorlik yo'nalishidagi zotlarining xususiyatlarini, hayvonlarni urchitish va urug'lantirish, ozuqalarning kimyoviy tarkibi asosida to'yimlilikini baholash, ozuqalarning to'yimlilikini va energetik ozuqa birligida



	baholashni hamda chorva hayvonlarni bonitirovka qilish <i>ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.</i>
4.	<b>VIII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b> <ul style="list-style-type: none"> <li>• Ma'ruzalar;</li> <li>• Interfaol keys-stadilar;</li> <li>• Seminarlar (mantiqiy fikirlash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>• Guruhlarda ishlash;</li> <li>• Taqdimotlarni qilish;</li> <li>• Individual loyihalar;</li> <li>• Jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.</li> </ul>
5.	<b>IX. Kreditlarni olish uchun talablar:</b> Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, i yakuniy nazorat bo'yicha test yoki yozma ishni topshirish.
6.	<b>Asosiy adabiyotlar</b> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Soatov U.R. "Qishloq xo'jalik hayvonlarini urchitish". Toshkent 2024 yil.</li> <li>2. Nosirov U.N., Nosirov G'.U., Nosirov T.U. Чорвачиликда классик ва замонавий селекция усуллари. Darslik. Toshkent. 2008 y.</li> </ol> <b>Qo'shimcha adabiyotlar</b> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Sh.M. Mirziyoyev 2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi o'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi 28.01.2022 yildagi PF-60-son Farmoni.</li> <li>2. Sh.M. Mirziyoyev Agrar sohada ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarishni integratsiya qilish orqali sifat va samaradorlikni oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida 07.07.2023 yildagi PQ-216-son.</li> <li>3. Nosirov U.N.«Qoramolchilik» Toshkent 2001</li> <li>4. Abdolnizozov B. "Chorvachilik asoslari" Darslik. Toshkent. 2010 yil.</li> <li>5. Marlen Felius, Peter A.Koolmess, Bert Theunissen. On the Breeds of Cattle – Historic and Current Classifications. 2016. Tutorial</li> <li>6. Gunter Heinz Peter Hautzinger MEAT PROCESSING TECHNOLOGY Bangkok, 2012.</li> </ol> <b>Axborot manbalari</b> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat hokimiyati portali</li> <li>2. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasi</li> <li>3. www.ziyo.net.uz</li> <li>4. <a href="https://slib.uz/ru/journal/view?id=83">https://slib.uz/ru/journal/view?id=83</a></li> <li>5. <a href="https://calendar.uoguelph.ca/undergraduate-calendar/programs-majors-minors/animal-science-ansc/#requirementstext">https://calendar.uoguelph.ca/undergraduate-calendar/programs-majors-minors/animal-science-ansc/#requirementstext</a></li> </ol>
7.	Fanning o'quv dasturi Toshkent davlat agrar universiteti Ilmiy Kengashining 2025 yil " <u>04</u> " <u>07</u> dagi " <u>13</u> " – sonli bayoni bilan ma'qullangan.



8.	<p><b>Fan/modul uchun ma'sular:</b></p> <p>U.R. Soatov- Toshkent davlat agrar universiteti "Umumiy zootexniya va veterinariya" kafedrası professori, qishloq xo'jalik fanlari doktori.</p> <p>F.K.Mamadov – Toshkent davlat agrar universiteti "Umumiy zootexniya va veterinariya" kafedrası dotsenti.</p> <p>Y.Acpaeb- Toshkent davlat agrar universiteti "Umumiy zootexniya va veterinariya" kafedrası dotsenti, k.x.f.f.d (PhD)</p>
9.	<p><b>Taqrizchilar:</b></p> <p>A.X.Xolmatov - Chorvachilik va parrandachilik ilmiy-tadqiqot instituti katta ilmiy xodimi, qishloq xo'jalik fanlari doktori.</p> <p>B.B.Shayusupov – Toshkent davlat agrar universiteti "Umumiy zootexniya va veterinariya" kafedrası dotsenti, k.x.f.f.d (PhD)</p>

Mazkur o'quv dasturi dunyoning e'tirof etgan xalqaro QS va THE reytingida nufuzli TOP-300 talikka kirgan quyidagi oliy ta'lim tashkilotlarining ta'lim dasturlari asosida ishlab chiqilgan.

№	OTM nomi	QS	THE	Top-300 ta'lim dasturi asosida kiritilgan qo'shimchalar	Mazkur dasturdagi mavzu nomi nomi	Havolalar
1	Penn State (AQSh)	89	64	Qishloq xo'jalik hayvonlarining sut mahsuldorligini baholash usullari: sutdorlik koeffitsienti, bazis yog'dorlik darajasini aniqlash, laktatsiyaning doimiylik koeffitsienti, yog'dorligi, sutning yog' chiqimi, o'rtacha yog' miqdori va zachyot massasini aniqlash.	<p><b>7-mavzu.</b> <b>Introduction to dairy judging</b></p> <p>Qishloq xo'jalik hayvonlarinig sut mahsuldorligi bo'yicha baholash.</p>	<a href="https://animalscience.psu.edu/undergraduate/files/animal-sciences-handbookt">https://animalscience.psu.edu/undergraduate/files/animal-sciences-handbookt</a>
2	Massey university (New Zealand)	239	501	Otlarning tortish kuchini aniqlash, turli yo'nalishdagi ot zotlari, otlarning ish miqdori va quvvatini aniqlash.	<p><b>10-mavzu.</b> <b>Equine sport and racing.</b></p> <p>Yilqilarning mahsuldorligi. Ot sporti va poyga</p>	<a href="https://www.massey.ac.nz/study/courses/animal-production-117371/">https://www.massey.ac.nz/study/courses/animal-production-117371/</a>
3	University GUELPH (Kanada)	504	201	Zotlarni yaxshilash, yangi zotlar yaratish dasturlari va yullari. Podalarning genetik	<p><b>12-mavzu:</b> <b>Animal Breeding Methods and Applications</b></p> <p>Chorvachilikda naslchilik ishlari</p>	<p>MBG*4030</p> <p><a href="https://calendar.uoguelph.ca/undergraduate-calendar/programs-majors-minors/animal-science-">https://calendar.uoguelph.ca/undergraduate-calendar/programs-majors-minors/animal-science-</a></p>



				potensialini oshirish. Naslchilik ishlarini tashkil qilish va boshqarish.	va uni tashkil etish. Yirik miqiyosli seleksiya rejasini tuzish.	<u>ansc/#requirements</u> t
--	--	--	--	--	--	--------------------------------